



THE ROLE OF UZBEK FOLK INSTRUMENTS IN THE FORMATION OF OUR SPIRITUALITY

Primov Sardor Islom o'g'li¹

¹ 4th year student of the Uzbek State Conservatory, majoring in "Performance on folk instruments"

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4715200>

ARTICLE INFO

Received: 13th April 2021
Accepted: 17th April 2021
Online: 19th April 2021

KEY WORDS

Spirituality, Orchestra, innovative, homophonic music, humanity, melody, musical instruments, singing.

ABSTRACT

Music is one of the elements that convey the spirituality of humanity, the inner experiences of life, not only to humanity but also to all living beings. The heritage of our ancestors the performance of Uzbek folk instruments is one of the innovative ways of shaping our spirituality. This article discusses the development of orchestral performance.

MA'NAVİYATIMIZ SHAKLLANISHIDA O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARI IJROCHILIGI O'RNI

Primov Sardor Islom o'g'li¹

¹ O'zbekiston davlat konservatoriyasi «Xalq cholg'ularida ijrochilik» ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 13-aprel 2021
Ma'qullandi: 17-aprel 2021
Chop etildi: 19-aprel 2021

KALIT SO'ZLAR

Ma'naviyat, orkestr, innovatsion, gomofonik musiqa, insoniyat, ohang, musiqa cholg'ular, qo'shiqchilik.

ANNOTATSIYA

Musiqa insoniyat ma'naviyatini, turmush tarzini, ichki kechinmalarini ohanglar orqali nafaqat insoniyatga balki jamiyiki tirik jon va mavjudodlarga yetkazib beruvchi unsurlaridan biri hisoblanadi. Ajdodlarimiz merosi O'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligi – ma'naviyatimiz shakllashining innovatsion yo'llaridan biri xisoblanadi. Ushbu maqolada orkestr ijrochiligini rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

Orkestr ijrochiligini rivojlantirishning inovatsion yo'llari.

Musiqa insoniyat ma'naviyatini, turmush tarzini, ichki kechinmalarini ohanglar orqali nafaqat insoniyatga balki jamiyiki tirik jon va mavjudodlarga yetkazib beruvchi

unsurlaridan biri hisoblanadi. Hatto o'simliklar musiqa ta'sirida yuksak rivojlanishini biolog olimlar ta'kidlashmoqda. Bu mo'jizaviy va ifodaviy ohanglar cholg'ular orqali azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir cholg'u ustalari tomonidan



yasalib, tobora mukammallashmoqda. Xar bir xalqning cholg'ularida o'sha xalqning milliy g'ururi, urf-odatlarini an'anasi, qadriyatlarini o'z ifodasini topgan va ulardan taralayotgan ohanglarda buni his yetish mumkin. Qadimdan musiqa cholg'ulariga bo'lgan etibor kuchli bo'lishi bilan bir qatorda uning tarbiyaviy ahamiyatiga ham alohida e'tibor berilgan. Zero, har bir komil inson tarbiyasida musiqiy ijro eng muhim o'rin tutadi, ya'ni insonlarni ruhiy hamda ma'naviy tarbiyasiga asos bo'la oladigan omil sifatida qaraladi.

Qadimdan inson sivilizatsiyasi shakllanib kelayotgan paytdan musiqa san'ati rivojlanib kelgan. Asrlar davomida O'rta Osiyoda yashagan xalqlar juda rivojlangan va xilma – xil milliy musiqa madaniyatini yaratdilar. Ming yillar davomida musiqa inson hayoti bilan birga bo'lib, uning ish faoliyati va hayoti, hissiyotlari va tajribalari, fikrlari va intilishlari, yaxshi kelajak uchun kurashni aks ettiradi. Kishilik jamiyatining umumiy taraqqiyoti va u yoki bu millatning hayotining o'ziga hos tarixiy shartlariga muvofiq ravishda uning musiqiy san'ati ham rivojlandi. Ba'zi xalqlar monofonik musiqa, yakka tarzda, xor bo'lib, qo'shiq kuylash va musiqa cholg'ularini ijro etishda unison ya'ni bir ovozli qilib ijro etishgan bo'lsa, boshqa xalqlar esa, polifonik yoki gomofonik musiqa va ansambl bo'lib ijro etish talabiga javob beradigan cholg'ularni ijro etishgan va shu cholg'ular targ'ibotchisi bo'lishgan.

Har bir xalqda musiqiy asarlar mazmun jihatidan, janrlarning turliligi va badiiy obrazlari bilan ajralib turgan. Xar bir xalq o'zining musiqasini intonatsion xususiyatlarini, usulini, tuzilishini rivojlantirgan va shu bilan birga o'ziga xos musiqa cholg'ularini yaratgan.

Asrlar davomida xalq qo'shiqchilari va musiqa cholg'uchilari, qo'shiqchilik,

cholg'u ijrochilik san'atini shu bilan birga musiqiy cholg'ularni rivojlantirib kelishdi. Qadimgi xalqlar musiqa cholg'ulari rang-barangdir. Ular tosh, qayin daraxti, suyak kabi homashyolardan yasalib, sodda ko'rinishda bo'lgani bilan, yasalishi murakkab hamda ijro jihatidan mukammal bo'lgan damli va torli cholg'ular bo'lgan. Xalq musiqiy madaniyati asta sekinlik bilan boyitildi va musiqa cholg'ular ham ko'paya boshladi: ayrim cholg'ular hozirga qadar birinchi ko'rinishidan o'zgarmagan holda yetib kelgan. Boshqa cholg'ular esa zamon talabiga javob bera olmaganligi uchun ayrimlari yo'q bo'lib ketdi va boshqalari esa takomillishtirildi. Rivojlanmagani va insonlar o'rtasida yaxshi qabul qilinmaganligi tufayli yo'q bo'lib ketgan cholg'ular o'rniga yangi cholg'ular paydo bo'ldi va cholg'ular soni va turlari ko'paydi.

Mustaqilligimizning ilk yillaridanoq xalqimiz madaniyatiga juda katta etibor qaratildi. Ma'naviyat nima uchun kerak va uning maqsad va vazifalari qanday? U nechog'lik tushuncha yoki mavjudlikki, bugun jamiyatning unga zarurati qolmabdi? Ayniqsa ijtimoiy tarmoq obunachilarining shu qadar me'dasiga tegib ketibdiki, bu so'zni kim va qaerda aytmasin, darhol aks ta'sirlarga, turli istehzoga qorishgan tanqidlarga uchramoqda, uzundan-uzoq bahsu munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Aslida, barchamizga ma'lumki, "ma'naviyat" so'zi arab tiliga mansub bo'lib, "ma'no" so'zining jam'ini, ya'ni "moddiy bo'lmagan narsalar" ma'nosida insonning ruhiyati, imon-e'tiqodi, tafakkuri, ongi, aqlu zakovati, ilmu farosati, kiyinish, so'zlashish, muomala madaniyati, milliy hamiyati, milliy qadriyati, tarbiyasi kabi tushunchalarni mujassamlashtirgan yaxlit tushuncha. Shu jihatdan ma'naviyat har qanday davr va zamonda ham, har qanday jamiyatda ham



insoniyatning birlamchi va asosiy ehtiyoji, bo'lib keladi, unga hamisha zarurat seziladi. Ma'naviy ehtiyojni qaysi o'ringa qo'yishi va namoyish qilishi bilan shaxsning individual xususiyati ham, e'tiqodiy maqomi ham, ma'rifiy martabasiyu ijtimoiy ong darajasi ham aniq belgilanadi.

Insonni ichki dunyosini, ruhiyatini ochib beradigan mayin va shirali milliy musiqiy ohanglar, san'at ustalari, yosh adabiyotxonlar tomonidan Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira, Cho'lpon, Usmon Nosir, Oybek, Zulfiya, Saida Zunnunova kabi bir qancha adiblarning badiiyat manzumalari (Manzuma – voqeaband she'riy asar yoki she'riy maktubni iqodalovchi termin) yoinki, diniy-tarbiyaviy manbalar bozorlardagi yoki mahalla guzaridagi radiouzellar orqali, avtobus, metro va korxonalarda jarangdor ovozdagi yangrab tursa eshituvchilarga albatta hush yoqadi. Bunday manbalar insoniyat qalbini poklikka undaydi. Lekin bunday ifoda kimni befarq qoldiradi? Kimning g'ashini keltiradi? Faqatgina qalbi qotgan, hislari so'ngan, moddiylikka talpingan, bugungi kuni bilan yashaydiganlarningda, albatta.

Ushbu jihatlarni e'tiborga olsak, ma'naviy ozuqa ehtiyoji birlamchi zaruratligi yanada oydinlashadi. Bu muammo hamisha dolzarb, hamisha bahsli, hamisha bardavom. Unga yondashuvni o'zgartirib, ta'sirning beozor usullarini tanlay bilish lozim. Tanlanayotgan material va manbalarning milliyligi, ma'rifiyligi, betakrorligi, ta'sirchanligiga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Mutolaa madaniyati, kitobxonlikni targ'ib etishning o'ziga xos usullari orqali insonlarning o'z o'zini anglashi, o'z o'zini rivojlantirishiga erishish kabi faoliyatlar bu borada nisbatan samarali. Bir so'z bilan aytganda, "Ma'naviyat eng qudratli va ta'sirchan qurolimiz", suv va havo yanglig'

ehtiyojimiz, ikki dunyo saodati kaliti ekanligini dildan his qilish va hamisha unga talpinib, undan bahra olib yashash lozim.

Turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o'zi ko'rsatib turibdi.

Ma'lumki, davlat rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 8 avgustdagi PQ-3178-sonli "O'zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risidagi", 2018 yil 28 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PQ-4038 - sonli qaroriga asosan, shu bilan birga, 2019 yilning 19 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida o'tkazilgan yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishida belgilab berilgan 5 tashabbusning birinchisi, ya'ni yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Aholining madaniy va estetik ehtiyojlarini yanada to'la qondirishga, teatr, musiqa, tasviriy san'at hamda boshqa san'at turlarini rivojlantirishga, xalqimiz tarixi va bugungi hayotining yeng yorqin sahifalarini,



mamlakatimizning yekin demokratik taraqqiyotini aks yettiruvchi asarlar yaratishda ijodiy jamoalarga har tomonlama yordam ko'rsatishga alohida ye'tibor qaratildi.

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatining asosiy vazifa va yo'nalishlari yetib belgilansin: madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, milliy madaniy va ma'naviy merosni asrab-avaylash va ko'paytirish, san'at va badiiy ijodni har tomonlama rivojlantirish, xalqimizning ma'naviy-axloqiy va madaniy darajasini yanada yuksaltirishni rag'batlantirish, uni milliy va jahon madaniyatining yeng yaxshi namunalaridan bahramand yetish borasida tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish; aholi keng qatlamlari, ayniqsa, yoshlar qalbi va ongiga mustaqillik, yuksak ma'naviyat, insonparvarlik an'alariga sadoqat, milliy o'zlikni anglash g'oyalarini yanada chuqur singdirish, radikalizm va ekstremizmdek yot g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash, jamiyatning muttasil ortib borayotgan intellektual, yestetik va madaniy yehtiyolarini qondirishga yo'naltirilgan ommaviy-madaniy tadbirlarni o'tkazishga qaratilgan ma'rifiy ishlarni amalga oshirish;

Shu farmoyishlar qatorida madaniyat va manaviyatimizni yuksaltirish uchun bir necha farmoyishlar chiqardilar.

Madaniyat vazirligi va Xalq ta'limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman va shaharlarda madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo'shimcha 1,5 mingta to'garak tashkil etish vazifasi qo'yilib hozirda to'garaklar o'tqazilib kelinmoqda.

Tashabbuskor iste'dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalb etgan holda, madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va

“Yoshlar klublari” tashkil qilish zarurligi ta'kidlandi.

Taniqli san'atkor va iste'dodli ijodkorlarni tumanlardagi madaniy ishlarga ko'makchi sifatida birlashtirish yaxshi natija berayotganini inobatga olib, bu tajribani butun mamlakatga yoyish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Unga muvofiq, taniqli artistlar tuman va shaharlarga ijodiy maslahatchi sifatida birlashtirilib, o'sha joylarda madaniyat va san'atni rivojlantirishga mas'ul bo'ladi, tuman va shaharlar hokimlari esa ushbu ishlarga moddiy va tashkiliy jihatdan yordam beradi.

Musiqqa va san'at sohasida oliy ma'lumotli kadrlarni ko'paytirish masalasiga ham e'tibor qaratildi.

Biz bilamizki har qanday yo'nalishda faoliyat olib borayotgan hodim o'z ishiga professional yondoshganda yashxi natijalarga erishadi. Buning uchun avvalombor o'z yo'nalishini yetuk mutaxasisi bo'lishi, manaviy komil inson bo'lishi va a'lo darajadagi muhnat quroli bilan taminlangan bo'lishi kerak. Afsuski ajdodlarimizdan qolgan meros musiqqa cholg'ularimiz unchalik rivojlanmayapti. Nafaqat viloyatlarda balki Toshkent shahridagi maktablarda milliy cholg'ularimizga bo'lgan qiziqish so'ngan. Ayrim maktablarda o'quvchilar milliy musiqqa cholg'ularini nomlarini ham to'liq bilmaydi. Ajdodlarimizdan meros bo'lgan bir-biridan rang barang ohanglarga ega nay, qo'shnay, rubob, tanbur, dutor va yana bir qancha musiqqa cholg'ularimizni, nafaqat yosh avlod, qolaversa butun xalqimizga, butun dunyoga cholg'ularimizdan taralayotgan milliy kuylarimizni ijro etish va targ'ib qilish masalalari oldimizda turipti. Avvalombor yetuk sozandalarni tayyorlashda cholg'u sifati muhim o'rin tutadi. Prezidentimiz 2020 da o'tqazilgan yig'ilishda takidlab o'ttilarki “Har



bir maktab o'quvchisi bittadan musiqa cholg'usini o'rganishi shart" deb takidladilar. Agarda, qanday yo'nalish bo'lishidan qat'iy na zar har bir maktab o'quvchisi bittadan cholg'u o'rgansa va milliy musiqa san'ati haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa, yaqin yillar ichida xalqning umumiy musiqa savodi, tushunchasi, manaviyat va madaniyati shiddatli darajada o'zgaradi. Biz bilamizki musiqa cholg'ulari yasash jarayoni qo'l mexnati yordamida bajariladi. Bundan kelib chiqadiki ko'p kuch, vaqt va mexnat talab qiladi. Bundan tashqari, sozlarni mukammal darajada yasaydigan cholg'u ustalari juda qam. Har bir o'quvchiga sifatli milliy musiqa cholg'usini yetqazib berish uchun musiqa cholg'u asboblarini ishlab chiqarishga mo'ljallangan fabrika barpo qilish kerak. Fabrikaga yetuk mutaxasislarni jalb qilgan holda har bir milliy cholg'uyimizni mukammal o'lchovini aniqlagan holda, sifatli homashyodan yasash maqsadga muvofiq bo'ladi. Agarda hozirda Respublika bo'yicha 9942 ta sal kam o'n mingta maktab mavjudligini hisobga olsak, xar bir o'quvchiga milliy musiqa cholg'usini yetqazib berish uchun qanday katta miqdorda milliy musiqa cholg'ulariga extiyojimiz kattaligi ko'rishimiz mumkin. Undan tashqari yana 300 dan ortiq musiqaga ixtisoslashtirilgan maktablarning xar birida 500 tadan 1200 tagacha o'quvchilar tahsil olishini hisobga olsak hozirgi kunda Andijonda faoliyat ko'rsatayotgan kichik fabrika, Respublikamizni milliy musiqa cholg'ulariga bo'lgan extiyojini sifat va son jihatidan qondirishga qiynaladi. Fabrika ochish bizga nima beradi? Avvalombor O'zbekiston Respublikasini asosiy muammosi bo'lib turgan va prezidentimiz har yig'ilishlarida takidlab o'tayotgan ishsizlik masalasi yengillashadi. Faqat fabrika ishchilari emas balki xar bir musiqa maktablarida ish o'rinlari paydo bo'lib, ishsiz yurgan kadrlar ish bilan

ta'minlanadi. Bolalar va yoshlar musiqa san'ti bo'yicha O'zbekiston dunyoda revolyutsiya qilish darajasigacha yetadi. Xalq milliy san'ati yetuk cho'qqilarga yerishadi va tabiiyki dunyoda o'zbek xalq musiqa san'ati har jabhalarda dovrug' soladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, ajdodlarimizning san'atga bo'lgan qiziqishi sababli ko'plab musiqa cholg'ular bizgacha yetib kelgan va bizga xizmat qilib kelyabti. Cholg'ular nafaqat ichrochilikda balkim musiqa savodini oshirishga professionalizmni shakllantirishga, dunyo sivilizatsiyasiga o'zini hissasini kiritishga yordam berayotgan san'atlardan biridir.

O'tgan asrning 30-40 yillaridan cholg'uda nota yozuvi orqali ichro, professionalizm darajasini o'stirish maqsadlari oldinga surilgan bo'lsa, hozirgi kunda butun mamlakat miqyosida, har bir viloyatlarda musiqa madaniyatini va milliy cholg'ularimizni targ'ib qilish katta ahamiyat kasb etmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari, shu jumladan O'zbekiston musiqa san'atining yangi shakli bo'lmish, ko'p ovozli xalq cholg'ulari ansambl va orkestrlari cholg'u madaniyati qadimiy an'alarining mantiqiy davomi hisoblanadi. Ushbu jamoalar o'tgan asrning 30 -yillarida yuzaga kelib, faoliyatlarining ko'p vaqt o'tmasligiga qaramay, xalqimizning musiqiy savodini oshirishida, madaniyatini o'sishida, badiiy didini rivojlanishida xozirgi kunda muhim kasb ahamiyat etadi.

Hozirda o'zbek xalq cholg'ularini targ'iboti va rivojlanishiga juda katta hissa qoshayotgan, o'zbek xalq cholg'ularini va musiqasini dunyo miqyosiga yuqori darajaga olib chiqayotgan "Navro'z sadolari" Respublika xalq cholg'ulari ansambl va orkestrlari festivali mana ko'p yillar



davomida juda ko'p xalqaro va o'zbek xalq cholg'ulari ansambl orkestr jamoalarini o'ziga jalb qilib kelmoqda.

1996 yildan O'zR Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston davlat konservatoriyasi va «Evrobazis» kompaniyasi yordamida "So'g'diyona" xalq cholg'ulari kamer orkestri "Navro'z sadolari" Respublika xalq cholg'ulari ansambl va orkestrlari festivalini muntazam ravishda o'tkaza boshladi. Ushbu tadbir faoliyatiga 2008 yildan "Sog'lom avlod" Xalqaro nodavlat jamg'armasi, "Tasviriy oyina" ijodiy uyushmasi, 2012 yildan esa O'zbekistonda Shveysariya elchixonasining Shveysariya hamkorlik byurosi, 2015 – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Informatsion Markazi qo'shildi. Aynan shu yili "Navro'z sadolari" festivali Xalqaro tadbirga aylandi va unda Rossiya, Mongoliya, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Qozog'iston va Tojikiston musiqiy jamoalari ishtirok etib kelishmoqda. 2017 yilda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati ushbu tadbirni o'tkazilishiga yordam berdi.

Ushbu festival yoshlarning musiqiy tarbiyasiga bag'ishlangan bo'lib, ushbu soha bo'yicha Davlat dasturini bajarish, shuningdek respublikamiz kelajak madaniyatini rivoji uchun milliy cholg'ularimiz ijrochiligida yetuk kadrlar tayyorlashga, o'zbek musiqa madaniyatida ko'p ovozli ijro shaklini rivojlantirish va yanada ommalashtirishga yo'naltirilgandir.

Festivalda maktabgacha ta'lim muassasalari, bolalar musiqa va san'at maktablari, litsey va kollej o'quvchilari, hamda musiqa oliy o'quv yurtlarining talabalari o'z mahoratini namoyon etishadi. Festivalda katta orkestr jamoalari bilan bir qatorda, kichik ansambl guruhlarining ishtirok etishi, respublikamizning uzoq nuqtalarida

ham musiqa olamida ijod qilib kelayotgan turli yoshdagi ijodkorlarni kengroq qamrab olishni ta'minlab kelmoqda.

Yildan-yilga ushbu musiqa bayramiga bo'lgan qiziqish ortib borayotgani juda quvonarli xol. Qiyoslash uchun – 2010 yilda 33 ta jamoa va 332-ta musiqachi sozandalar(bunda bolalar musiqa va san'at maktablari, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarining jamoalari qatnashgan), 2015 yilda esa - 142 jamoa va 2107 ta ishtirokchilar sonini yaqqol ko'rsatish mumkin(bunda faqat maktabgacha ta'lim muassasalari, bolalar musiqa va san'at maktablarining jamoalari). Shu bilan birga festival ishtirokchi guruhlarning ko'p ovozli ansambl va orkestrlar tarkibi rang-barangligi va kontsert dasturlarining ancha qiziqarliroq ekanligini ko'rsatdi. Oxirgi ma'lumotlarni hisobga olgan holda, shuni ta'kidlash joizki, bolalarni ma'naviy tarbiyasida xalq cholg'ularida musiqiy ijrochiligi mamlakatimiz madaniy rivojlanishida muhim va jiddiy ahamiyatga ega.

Festival doirasida ishtirokchilar uchun "cholg'u ijrochiligi", "dirijyorlik" va "orkestr bilan ishlash", "ansambl ijrochiligi" fanlari bo'yicha ishtirokchilar va uning o'qituvchilariga kengaytirilgan holatda maxorat darslari o'tkazilib kelinmoqda. Shu bilan birga, har yili Respublika yoki Xalqaro ilmiy – amaliy anjumanlar bo'lib o'tadi. Ushbu tadbirlarda boshlang'ich va o'rta maxsus musiqa ta'limi uchun ijrochilik repertuari shakllantirish, ushbu davrda dars berish uslubiyati, tajriba almashish, bolalar va o'smirlar uchun musiqa cholg'ularni yaratish masalalari, jamoa ijrochiligiga oid masalalar muhokama qilinadi. Respublikamizda "Navro'z sadolari" xalqaro ko'p ovozli xalq cholg'ulari ansambl va orkestrlari festivalini o'tkazilishi jamiyatimiz ma'naviy saviyasini, yoshlarning musiqa savodi, xalqimizning



umumiy madaniyatini yuksaltirishda mazkur forum katta ahamiyat kasb etadi.

2020 yil dekabr oyida, pandemiya sharoitida birinchi marta O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O'zbekiston davlat filarmoniyasi, "Sog'lom avlod uchun" xalqaro xayriya fondi, Shveysariyaning O'zbekistondagi elchixonasi ko'magida xalq cholg'ulari ko'p ovoqli ansambl va orkestrlarining "Navro'z sadolari" nomli masofaviy VI Xalqaro web musiqa ko'rik festivalini o'tkazildi.

Ushbu Xalqaro musiqa ko'rik festivali, yosh ijrochilarning o'z mutaxassisligi bo'yicha ijrochilik ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga, musiqiy ijro jarayonida yangi ijodiy uslublarni egallashga, jahon mumtoz kompozitorlarining asarlari, o'zbek va boshqa xalqlar bastakorlari kuylaridan bahramand bo'lish, shuningdek, o'zbek musiqa madaniyatini yuksak darajaga ko'tarishga hamda milliy musiqiy ijrochilik san'atini dunyo sahnalariga olib chiqish va targ'ibot etishda yordam beradi.

Mazkur ko'rik festival, qobiliyatli yoshlarni rag'batlantirish tizimini takomillashtirish, ularni yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalb etish, yosh sozanda ijrochilarni o'z mutaxassisligi bo'yicha yuqori natijalarga erishishga, milliy cholg'ularda jamoaviy ijrochilikni rivojlantirishga, musiqiy ijrochilik jarayonida yangi ijodiy uslublar yaratishga, jahon kompozitorlarining asarlarini targ'ib etish orqali milliy musiqa madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Festival maqsadi Markaziy Osiyo davlatlarining viloyat, shahar va tumanlarida, O'zbekiston Respublikasining viloyat, shahar va tumanlarida milliy cholg'ularida ko'p ovoqli ijrochilikni rivojlantirishga yordam berish, milliy ijrochilik an'analarini saqlash va rivojlantirish, yoshlarning ma'naviyat va

madaniyatini o'stirish, Ona - vatan uchun faxr tuyg'usini tarbiyalash, vatanparvarlik mavzuidagi to'laqonli badiiy asarlarni yaratish, ijrochilik mahoratini oshirish va milliy cholg'ular ansambli va orkestrlarining ijodiy faoliyatini jadallashtirish, xalqaro ijodiy aloqalarni mustahkamlash, ijrochilik repertuarlarini boyitish va zamonaviy musiqa bilan tanishtirishdir.

Guvohi bo'lganimizdek "Navro'z sadolari" Respublika xalq cholg'ulari ansambl va orkestrlari festivali xalq cholg'u musiqa ijrochiligini rivojlantirish yo'lida jadal inovatsion harakatlanmoqda. Festival orqali viloyatlarda yangidan yangi ansambl va orkestr jamoalari paydo bo'ldi. Bularga Qashqadaryo, Buxoro, Xorazm orkestr jamoalari va Andijonda "Tarona" orkestri kabi yana bir qancha jamoalar tuzilib, faoliyat olib bormoqda. Nafaqat yoshlar, bolalar hatto maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi kichkintoy bolajonlar xam kichik ansambllar bilan qatnashib, bolalikdan musiqaga nisbatan mehr, ma'naviy tushuncha bilan boyib kelmoqdalar. Festival tasirida nafaqat Respublikamizda, balki boshqa xalqlar musiqa madaniyatiga ham tasir ko'rsatmoqda. Misol tariqasida 2004 – yildan boshlab o'zbek madaniyatini tanitish maqsadida majburiy ijro dasturiga o'zbek xalq kompozitorlarini asarlari kiritilgan. Yildan yilga festivalga bo'lgan qiziqish ortgani va qatnashchilarni soni ko'paygani sababli festival bo'lingan. Bir yil 3 yoshdan boshlab bolalar bog'chasi, musiqa va san'at maktab o'quvchilari uchun bo'lsa, ikkinchi yil professionalizm jihatidan o'sgan, milliy cholg'ularimiz bo'yicha yaxshi ko'nikmalarga ega 16-19 yoshli yosh sozandalar uchun o'tqazilgan va majburiy asarlar ijrochilar yoshini, ijrochilik imkoniyatlarini hisobga olingan holda tavsiya qilingan. Bu narsa o'zbek madaniyatini boshqa davlatlarga targ'ibot qilish uchun katta



yordam beryapti. Ijro qilish majburiy hisoblangan asarlarni yuqorida takidlab o'tilgan davlatlardan Rossiya, Mongoliya, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Qozog'iston va Tojikiston musiqiy jamoalari o'zbek jamoalari bilan ijro qilib o'zbek musiqa madaniyati bilan tanishib ketishmoqda. Festivalga bo'lgan qiziqishga misol tariqasida Tojikiston respublikasi festivalga birinchi bor qatnashgan yili(2004) musiqa san'at kollej jamoalarini olib kelgan bo'lsa, ularning qiziqishi ortib 1 yildan so'ng maktab va bolalar bog'chalarini jalb qilib ishtirok etishti. Hozirgi kunda Tojikistonning Xojand shaxrida yildan yilga 3 yoshidan boshlab musiqa cholg'ularini ijro qiluvchi bolalar ko'payib bormoqda. Bularning xammasi

“Navro‘z sadolari” festivali ta'siri hisoblanadi.

Musiqiy til iborasi – biz bilamizki insoniyat turli xil tillarda so‘zlashadi va musiqada ham huddi shunday musiqiy til mavjud. Hozirgi paytda zamon bilan ham nafas bo‘lish muhim ahamiyatga ega va musiqiy tillardan biri bo‘lmish zamonaniy musiqa tobora rivojlanmoqda. Cholg‘ularda nafaqat xalq kuylari balki jahon musiqa durdonalarini ijro qilish, bitta ijrochi o‘z yo‘nalishi va yevropa cholg‘ularidan bir necha cholg‘ularda ijro qilishni "So‘g‘diyona" xalq cholg‘ulari kamer orkestri ijrochilari ijro dasturlarida ko‘p kuzatish mumkin va shu yo‘nalishlarni O‘zbekiston va qolaversa butun jahon bo‘yicha targ‘ib qilib kelishmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Matyakubov “An'anaviy cholg‘u ijrochiligi” 2017 yil.
2. O.Ibrohimov “Qo‘shnay sadolari” 2003 yil.
3. K. Vertkov, G. Blagodatov, E. Yazovitskaya “ATLAS” 1975 yil.
4. Ziyonet.uz